XALQ DEPUTATLARI BUXORO VILOYATI KENGASHINING QARORI

2024 - yil 5 - fevral VI-91-8-2-0-K/24 Buxoro viloyati hokimligi

Buxoro viloyatidagi issiqlik energiyasi yetkazib beruvchi korxonalar tomonidan ko‘rsatiladigan issiqlik energiyasi va issiq suv yetkazib berish xizmati uchun narx (tarif)larni tartibga solish to‘g‘risida

“2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 13-moddasi *(Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/886/0970-son),* “Issiqlik manbai” DUKning 2024-yil 15-yanvardagi 18-son, “Buxoroenergomarkaz” AJning 2024-yil 15-yanvardagi 11-BX-son, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi viloyat hududiy boshqarmasining 2024-yil 5-yanvardagi 02-06-24/04, 02-06-24/04-son xatlari hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 15-yanvardagi 01/06/20-05-38/48, 01/06/20-05-38/49-sonli xulosalariga asoslanib, issiqlik energiyasi va issiq suv yetkazib berish bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun tariflarni tartibga solish maqsadida xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILDI:

1. Viloyat qurilish va uy-joy kommunal boshqarmasi boshlig`i M.To`raboyevning viloyatda issiqlik energiyasi va issiq suv etkazib berish bo`yicha ko`rsatiladigan xizmatlar tariflari bo`yicha taqdimoti ma`lumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining issiqlik energiyasi va issiq suv yetkazib berish bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar tariflari bo‘yicha

xulosasi inobatga olinsin.

3. Buxoro viloyatida issiqlik energiyasi va issiq suv yetkazib berish bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun narx (tarif)lar ilovaga muvofiq ma’qullansin.

4. Viloyat hokimining o‘rinbosari J.Arashov viloyat issiqlik energiyasi va issiq suv yetkazib berish bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar tariflarini tasdiqlash bo‘yicha viloyat hokimi qarori loyihasi ishlab chiqilishini ta’minlasin.

5. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kirishi belgilansin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Homidov) hamda viloyat hokimi o‘rinbosari J.Arashov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **B.K.Zaripov**

Xalq deputatlari Buxoro viloyat
Kengashining
2024-yil 5-fevraldagi
VI-91-8-2-0-K/24-son qaroriga
1-ilova

Buxoro viloyatida issiqlik energiyasi va issiq suv yetkazib berish bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun narx (tarif)lar miqdori

№	Ko‘rsatiladigan xizmat	Taklif etilgan narx (tarif)
Aholi uchun		
1.	Markaziy isitish xizmati bo‘yicha isitish davrining har bir kuniga 1 kv.m isitiladigan maydon uchun	147,2 so‘m *(QQS siz)*
2.	Markaziy isitish xizmati bo‘yicha 1 Gkal issiqlik energiyasi uchun	77 440,0 so‘m *(QQS siz)*
3.	Issiq suv ta’minoti bo‘yicha hisoblash asbobi bo‘lmaganda bir oyda 1 kishiga	16 541,0 so‘m *(QQS siz)*
4.	Issiq suv sarfini hisoblash hisoblagichi bo‘lganda 1 kub.m issiq suv uchun	4305,7 so‘m *(QQS siz)*
Budjet va boshqa yuridik iste’molchilar uchun		
5.	1 Gkal issiqlik energiyasi uchun	373 200,0 so‘m *(QQS siz)*